



## YOSHLAR TARBIYASIDA SPORTNING O'RNI VA AHAMIYATI

**Aybek Aytimov Aymurat uli**

Osiyo Xalqaro Universitetining "Jismoniy tarbiya va sport  
mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi" yo'nalishi magistranti

**Ikramov Amirbek Aminovich**

Ilmiy rahbar:

Osiyo Xalqaro Universiteti Ilmiy ishlar va  
innovatsiyalar bo'yicha prorektori

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17947469>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 06-dekabr 2025 yil  
Ma'qullandi: 11-dekabr 2025 yil  
Nashr qilindi: 16-dekabr 2025 yil

### KEY WORDS

*Sport, islohotlar, meyoriy hujjatlar,  
yoshlar tarbiyasi, sport inshootlari.*

### ABSTRACT

*Maqolada sportning yoshlar tarbiyasida tutgan o'rnini, sport sohasidagi islohotlar, qabul etilgan meyoriy hujjatlar, sport inshootlari va yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar haqida so'z boradi.*

Har qanday yuksak madaniyatli jamiyat eng avvalo o'z fuqarolarining farovon turmushi va salomatligini muhofazalash haqida qayg'uradi. Aynan mamlakatning istiqboli, kuch-qudrati ko'p jihatdan shunga bog'liq. Jamiyat - har qanday evrilishlar, o'sish va o'zgarishlar jarayonida ham yangi avlod rivoji, kamoloti yo'lida harakatdan chekinmaydi. Sharq ta'limoti manbalarida, tarix zarvaraqlarida ham buning isbotini ko'rish mumkin.

Jismonan sog'lom, bilimli, ma'naviy barkamol, yetuk insonni tarbiyalash mavzusi sharq allomalari tomonidan chuqur o'rganilgan. Chunonchi, Arastu, Ibn Sino, Bahouddin Naqshbandiy, Najmiddin Kubro kabi ulug' allomalarning asarlari va nazariy ta'limotlarida ham yosh vujudni kamol toptirish, tarbiyalashga katta ahamiyat qaratilganligi bejiz emas. Yoshlar davlat va millat istiqbolini belgilaydi. Kelajakni esa, faqat bilimli, ham ma'nan, ham jisman sog'lom farzandlar bilangina qurish mumkin.

Ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni tarbiyalash faqat milliy ehtiyojgina emas, balki umumdavlat ahamiyatiga molik masala hisoblanib, u ko'pmillatli Vatanimizda tug'ilib o'sgan, tomir yoygan barcha qardosh xalqlar uchun birday ezgu maqsaddir. Sport nafaqat jismoniy, balki ma'naviy kamolotga yetishda ham muhim omildir. U irodani toblaydi, aniq maqsad sari intilish, qiyinchiliklarni bardosh va chidam bilan yengishga o'rgatadi. Inson qalbida g'alabaga ishonch, g'urur va iftixor tuyg'ularini tarbiyalaydi.

Mamlakatimizda normativ-huquqiy bazani takomillashtirish yuzasidan mustaqillik yillarida insonning asosiy huquq va erkinliklarini ta'minlashga doir konstitutsiyaviy qonunlar, kodekslar va qonunlar qabul qilingan bo'lib, bu qonun hujjatlari inson, xususan, bola huquqlarini himoya qilishning huquqiy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi. "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonun (1992 y.) mustaqil O'zbekiston Respublikasi qabul qilgan dastlabki qonunlardan biri bo'ldi, shuning natijasida o'quv yurtlarida, tumanlar, shaharlar,

viloyatlarda umuman respublikada jismoniy madaniyatni rivojlantirish umummilliy tusga kirdi.

Prezidentimiz rahnamoligida jamiyatimiz hayotining barcha jabhalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish, huquqiy demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyatini qurish zamirida, avvalambor, inson manfaatlari va qadri uning intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish, kasb mahoratini oshirish uchun zarur shart-sharoit yaratish vazifalari mujassam. Bu borada barkamol avlodni tarbiyalash, oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ilm-fan, ta'lim hamda ishlab chiqarish o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni yanada rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'kidlash joizki, Vatan, xalq shuhratini dunyoga yoyishda jismoniy tarbiya va sportning o'rni beqiyosdir.

Zero, bugun mamlakatimizda olib borilayotgan bunyodkorlik, ijtimoiy, iqtisodiy sohalaridagi islohotlar, ma'naviy-ma'rifiy tizimdagi yangilanishlarning zamirida hayotimizning asl mazmuni - yoshlarimizning barkamol turmush tarzini yaratishdek maqsad mujassam. O'quvchi-talabalarimizni ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan sog'lom qilib o'stirish, ularning baxt-u saodati, farovon kelajagini ko'rish, dunyoda hech kimdan kam bo'lmaydigan avlodni tarbiyalash jamiyatimizning eng muhim vazifalaridan biridir.

Yoshlarga yaratilayotgan shart-sharoitlar, ko'rsatilayotgan g'amxo'rliklar qadrini chuqurroq anglash, his qilish uchun dunyoga nazar tashlab, mulohaza yuritishga to'g'ri keladi. Shunday mamlakatlar borki, bolalarini o'qitish, qornini to'q, ustuni but qilishga qurbi yetmaydi. Kambag'allik, ocharchilik, turli xil kasalliklar girdobidan chiqib ketolmay boshqalarga qo'l cho'zib, xayriya so'rab yashaydi. BMT ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda 854 million odam ocharchilikdan aziyat chekmoqda. YUNESKO ma'lumoti bo'yicha dunyoda maktab yoshidagi, 100 million bola o'qish imkoniyatidan mahrum.

Yoshlar sog'lom, ilm-ma'rifatli, e'tiqodli bo'lsa, zamonaviy kasb-hunarlarini egallasa, hech kimdan kam bo'lmagan avlod kamol topsagina orzularimizga yetishimiz, eslaylik, davlatimiz ta'sis etgan birinchi orden "Sog'lom avlod uchun" ordeni bo'ldi va shu nomda xalqaro jamg'arma tashkil etildi. Muhtasham sport inshootlari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar barpo etildi. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi orasida birinchi bo'lib bizda yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida (1991 y. 20-noyabr) qonun qabul qilindi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad - "yoshlarning ijtimoiy shakllanishi va kamol topishi, iqtidorini to'la-to'kis ro'yobga chiqishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy jihatdan shart-sharoit yaratish hamda ularni kafolatlashdan iborat"ligi ta'kidlab o'tildi.

Hech bir narsa mamlakatni sport kabi dunyoga mashhur qila olmaydi. Sport qadimdan to hozirgi kunga qadar insoniyat hayotida muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Jahon mamlakatlari qatori yurtimizda ham sport rivojlanib bormoqda. Respublikamizda sport umumdavlat ishi hisoblanib, jismoniy madaniyat bilan birga aholining barcha qatlamlarini va yoshlar guruhini qamrab olgan. O'tgan yillar mobaynida yoshlarimizda nafaqat yuksak intellektual salohiyat, mustaqil fikr, keng dunyoqarashni shakllantirishga, balki ularni jismonan chiniqtirishga, ommaviy sportni rivojlantirishga, mamlakatimizning barcha hududlarida, xususan, chekka qishloqlarda ham zamonaviy sport majmualari bunyod etishga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining sportga doir bir qancha qarorlari sportni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Shuningdek, maktablarda jismoniy

tarbiya darslari samaradorligini oshirish, aholi o'rtasida sport madaniyatini yuksaltirish, ommaviy sport targ'ibotini rivojlantirish tadbirlari ishlab chiqilib, ularni hayotga tadbiq etishga kirishildi. Jumladan, O'zbekiston televideniyesining 4-chi kanali "Sport kanali"ga aylantirildi. Bolalar sporti uchun pedagog murabbiylar tayyorlash, sport jurnalistikasi va psixologiyasi mutaxassisliklari bo'yicha ta'lim tizimini takomillashtirish yuzasidan muayyan ishlar amalga oshirilgan. Sportchilarni ijtimoiy himoyalash masalalari qonun bilan mustahkamlandi. Sportchilarning ayrim toifalari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda imtiyozli pensiya olish huquqidan foydalanadilar.

Sport sohasida juda katta yutuqlarga erishgan fuqarolar, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishda alohida xizmat ko'rsatgan sport ustozlari, sportchilarni taqdirlash maqsadida bir qancha faxriy unvonlar ta'sis etildi.

Mamlakatda bolalar sportini rivojlantirish, umuman, sportni ommalashtirish, jumladan, o'quvchi-talaba yoshlar o'rtasida an'anaviy tarzda o'tkazilgan uch bosqichli -"Umid nihollari", "Barkamol avlod", "Universiada" musobaqalari katta natijalar berdi. Vatanimiz sportining keng rivojlanishi tufayli yoshlarimiz orasida dovrug'i respublikamizda va xalqaro miqyosda keng tanilgan yorqin salohiyatli sportchilar yetishib chiqmoqda va ularning safi tobora kengayib boraveradi.

Endilikda O'zbekiston jismoniy tarbiya va sporti oddiy jismoniy mashq va o'yinlardan zamonaviy olimpiya sport turlariga qadar yuksak taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Sport hozirgi jamiyatning yanada taraqqiy etishida yordam beruvchi davlatning qudratli vositasidir. Mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya va sportning ommaviyligi yanada kengaydi. Respublika aholisining katta qismi sportning har xil turlari bilan shug'ullana boshladi.

Mamlakatimizda 155 stadion, 4,7 mingdan ko'proq sport zali, 130 suzish havzasi, 1842 o'qotish tiri, 21 mingdan ziyod turli sport maydon va maydonchalari mavjud bo'lib, ushbu muhtasham sport inshootlardan yoshlarimiz samarali foydalanmoqda.

Mustaqillik yillarida qisqa vaqt ichida barcha viloyat va shaharlarda xalqaro andozalarga mos keladigan zamonaviy sport inshootlari qurildi. Toshkentdagi "Yunusobod", "Jar", Buxoro, Jizzax, Namangan, Samarqand kabi yirik shaharlarda bir necha sport sog'lomlashtirish majmualari qurildi. Sport inshootlarining mavjudligi, tegishli infratuzilma vujudga keltirilganligi respublikada eng yuksak darajadagi xalqaro musobaqalar o'tkazish imkonini berdi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda futbol sporti turlarini rivojlantirishga katta ahamiyat qaratilmoqda. Joylarda ko'plab zamonaviy ochiq va yopiq stadionlar qad rostlamoqda. Bunday jahon andozalari darajasidagi stadionlarda tez-tez xalqaro nufuzli musobaqalar o'tkazib turilibdi. O'zbekiston yoshlari barcha sohada jumladan, sport sohasida ham katta yutuqlarga erishmoqdalar.

Xulosa qilib aytganda yoshlarning yaratuvchanlik, bunyodkorlik salohiyati mamlakatning kuch-qudratini, ertangi porloq istiqbolini belgilashi sir emas. Mamlakatimiz ravnaqi, yurtimiz tinchligi, xalqimiz farovonligi yo'lidagi ulug' maqsadlarning izchillik bilan davom ettirilishi yoshlarning kuchiga-kuch, g'ayratiga - g'ayrat qo'shadi, buyuk kelajagimizga bo'lgan ishonchni yanada mustahkamlaydi.

#### Foydalangan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonuni. (1992 y.)

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ommaviy sport targ'ibotini yanada kuchaytirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi qarori. 2003-yil 4-noyabr.
3. Botirov H. O'zbekistonda jismoniy tarbiya tarixi. - T.: Ibn Sino nom. nashriyot-matbaa birlashmasi, 1993.-128 b.
4. Maxsitov B. O'zbekiston sport mamlakati // O'zbekiston ovozi. 2002. 29 avg.
5. Po'latov O., Yarashev K. Jismoniy tarbiya sog'lomlik yo'li // Guliston. -2002. -№1. – B. 20-21.
6. Buyuk kelajak bunyodkorlari: Metod.-bibliogr. qo'll. Mas'ul muharrir O.Qilichboyev. - T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008. - 56 b.
7. El sog'ligi – yurt boyligi: Metod. - bibliogr.qo'll. – T.: Alisher Navoiy nom. O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005. – 64 b.

